yaratish orqali xususiy sektorni «yashil» korxonalarga investitsiya kiritishga yo‘naltirish. Davlat korxonalarini «yashil» iqtisodiyot yetakchilariga aylantirish uchun davlat balansidan foydalanish — «yashil» investitsiyalar hamda barqaror standartlar va sertifikatlash bo‘yicha rejalashtirish, qabul qilish yoki hisobot berishni rag‘batlantirish maqsadida davlat korxonalari ustidan davlat nazorati amaliyotini takomillashtirish[7] zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Investitsiyalar-iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveri”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning uchinchi Toshkent Xalqaro investitsiya forumidagi nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi 2024 yil, 3 may, №86.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoniga 1-ilova.
4. Vaxabov A.V, Xajibakiyev Sh.X. Yashil iqtisodiyot. Darslik. 2-nashr qayta ishlangan va to‘ldirilgan.- T. 2021. -238 b.
5.Jamoliddinovich U. B. FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 01. – C. 149-151.
6. https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/3622/
7.https://bugun.uz/zbekistonda-2027-jilga-borib-11-ta-ies-va-13-ta-ges-ishga-tushiriladi
8. https://lex.uz/docs/6303230

YASHIL IQTISODIY TIKLANISHDA EKOTURIZM IMKONIYATLARI

Yokubjonova Xulkarbonu Yokubovna, PhD
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yashil iqtisodiy rivojlanish va ekoturizm masalalariga to’xtalib o’tiladi. Xususan, O’zbekiston uchun yashil iqtisodiy o’sish va ekoturizmni bir-biriga bog’liqligini o’rganish dolzarbligi kabil masalalar ko’rib o’tiladi.*


Kalit so’zlar: *yashil iqtisodiyot, atrof-muhit, ekoturizm, ekoturizm sanoati, yashil iqtisodiy o’sish.*

Yashil iqtisodiy tiklanish mamlakatlarning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim siyosat hisoblanadi. Covid-19 jahon iqtisodiyotiga koronadan keyingi davrda yashil iqtisodiyotni tiklash shaklida ekologik muammolarga ko'proq e'tibor berish uchun noyob imkoniyatni berdi.

Koronavirusning 2019-yil oxirida paydo bo‘lishi va 2020-yilda global pandemiyaga aylangani xuddi jahon iqtisodiyotiga shunday qattiq iqtisodiy zarba berdiki, dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti inqiroz bosqichiga kirdi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Korona kasalligi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy tanazzul juda chuqur bo'lgan va dunyo Ikkinchi Jahon

urushidan beri bunday tanazzulni boshdan kechirmagan edi.[6] Shu o’rinda, ta’kidlash kerakki, Korona kasalligidan zarar ko'rgan eng muhim iqtisodiy sohalardan biri turizm sanoati bo'ldi. Turizm sanoati shahar va tumanlar karantini, kasallik tufayli o'limning ko'payishi va xalqaro sayohatlarning to'xtatilishi tufayli ko'plab muammolarni boshdan kechirdi va COVID-19 tomonidan eng ko'p zarar ko'rgan global tarmoqlar qatoriga qo'shildi. Ijtimoiy masofa hamda har bir mamlakatning geografik chegaralar orqali turizmning harakatchanligini kamaytirish to‘g‘risidagi qarorlari (COVID-19 ning yangi versiyalari kelishining oldini olish uchun) tufayli, mamlakatlarda turistik sektorning faoliyatiga COVID-19 katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ekoturizm COVIDdan keyingi davrda yashil iqtisodiy tiklanishga erishishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida ko’zga tashlanmoqda. Pandemiya davrida turizm industriyasi chuqur iqtisodiy tanazzulga uchraganiga qaramay, soha COVIDdan keyingi davrda atrof-muhitga oid muammolarni ilgari surish orqali rivojlanish imkoniyatiga ega. [1] Barqaror turizmning muhim muvaffaqiyat omillarini aniqlash uchun 2003 yildan 2022 yilgacha bo'lgan maqolalar mazmunini tahlil qilganimizda, ular ekoturizm shaffof tartib-qoidalarga hamda hukumatning moliyaviy yordamiga muhtojligi aniqlandi. [2] Barqaror turizmning bibliometrik tahlilini o‘tkazilganda quyidagi xulosalarga kelindi. (1-rasmga qarang) Ekoturizm mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va o'rta va uzoq muddatli istiqbolda atrof-muhitning ifloslanishini yumshatishi mumkin. [3]



1-rasm. Ekologik turizm bo'yicha yillik nashrlar sonining ortib borishi (1984-2020 yillar)

Pandemiya cheklovlari davridagi ma’lumotlarini tahlil etar ekanmiz, havo va suv sifati hamda shovqin ifloslanishi ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi va atrof-muhit shovqini 75% ga kamaydi. Bu transport vositalari harakatining sezilarli darajada pasayishi, ijtimoiy harakatchanlik, xalqaro sayohatlar va zavodlarning vaqtincha yopilishi bilan bog'liq bo'ldi. [4]. (1-jadval ma’lumotlariga qarang)

1-jadval.

[6] https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2020

COVID-19 davrida havo sifati: dunyodagi eng ifloslangan 10 ta poytaxt shaharlarida PM [7]- 2.5 tahlili

№	Mamlakat	Joylashuvi (poytaxt shaharlari)	PM2,5 mkg/m3 (yillik)	Sana (karantin)
1.	Hindiston	Dehli	113,5	25/03/20
2.	Bangladesh	Dakka	97,1	16/03/20
3.	Afg'oniston	Kobul	61,8	28/03/20
4.	Bahrayn	Manama	59,8	*
5.	Mo'g'uliston	Ulan-Bator	58,5	25/01/20
6.	Quvayt	Quvayt shahri	56	9/03/20
7.	Nepal	Katmandu	54,4	24/03/20
8.	Xitoy	Pekin	50,9	29/01/20
9.	BAA	Abu Dabi	48,8	*
10.	Indoneziya	Jakarta	45,3	2/04/20

Bizning fikrimizcha, post-korona iqtisodiy o'sishning tiklanishi atrof-muhit muammolari va uni qayta tiklash asoslarini ko'rib chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin. Koronadan keyingi davrda mamlakatlarning iqtisodiy faoliyati ekologik toza va barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq bo'lishi mumkin. Bu fikr "yashil iqtisodiy o'sishni tiklash" shiori ostida muhokama qilinadi. Yashil iqtisodiy o'sishni tiklash mamlakatlarning iqtisodiy o'sish yo’lining ishlab chiqarish va farovonlik yo'liga qaytishini anglatadi, ammo ekologik nazoratlar tufayli qazib olinadigan yoqilg'i o'rniga yashil energiya iste'molini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar shular jumlasidan. Xususan, jahonda ekologik innovatsiyalar iqtisodiyotni yashillashtirishning muhim ko’rsatkichiga aylanib ulgurdi. [5]

Yashil iqtisodiy o'sish mamlakatlar uchun qiyin bo’lsada, katta imkoniyatlarni ochib beradi. Yashil iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini faollashtirish COVIDdan keyingi davr, chuqur iqtisodiy tanazzuldan keyin iqtisodiy bozorlar va korxonalar faoliyatini tiklash uchun muhimroqdir.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi turizmning barqaror rivojlanish indeksining (ekoturizmning proksi sifatida) tizimidan foydalanish orqali Yashil moliyalashtirish bozorini rivojlantirish, ekoturizmning izchil harakat rejalari, ekoturizm sanoatida kichik va o‘rta korxonalarni (KO‘B) qo‘llab-quvvatlash va mintaqaviy ekoturizm qiymat zanjirini yaratish asosiy amaliy siyosatdir.

O’zbekiston uchun yashil iqtisodiy o'sish va ekoturizmni bir-biriga bog’liqligini o'rganish quyidagi jihatlar tufayli muhim ahamiyatga ega:

[7] PM - zarrachalar (zarrachalar ifloslanishi deb ham ataladi) degan ma'noni anglatadi: havoda topilgan qattiq zarralar va suyuq tomchilar aralashmasi uchun atama.

- turizm sanoati O‘zbekiston mintaqalari iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi,

- atrof-muhitning keskin ifloslanishi, salbiy oqibatlari tufayli mamlakat turli xil siyosat va rejalar orqali turizm sanoatini tiklashga harakat qilishi,

- respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida vazifalar belgilanganligi,

- O‘zbekiston ekoturizmni rivojlantirishga intilayotgan davlatlar qatorida harakat qilayotganligi,

- 2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasida Ekologik turizmni amalga oshirish uchun yer maydonlarini aniqlagan holda davlat qo‘riqxonalarida muhofaza hududlarini tashkil qilish vazifalari belgilanganligi.

Mamlakatda pandemiyani nazorat qilgandan so'ng yashil iqtisodiy tiklanishni rag'batlantirish uchun barcha talablarga ega ekanligini bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik barqarorlikni rag'batlantirishdagi ijobiy roli tufayli yashil iqtisodiyotni tiklashga ustuvor ahamiyat berish zarur. Yashil YaIM o'sishini ta'minlash uchun moliyaviy mablag’lar zarur bo’ladi. Yetarlicha kapitalga ega bo’lgan mamlakatlar COVID-19dan keyin yashil iqtisodiy tiklanishga erishish uchun samarali rejalar tuzishlari mumkin. Lekin yetarlicha kapitalga ega bo’lmagan mamlakatlarchi? Yashil iqtisodiy tiklanishni rag'batlantirish uchun har bir mamlakat o’z hukumatini sohani rag'batlantirish siyosatini chuqur o'rganishi va tegishli qarorlar qabul qilishi lozim. Yalpi ichki mahsulotning yashil o'sishi talablarini shakllantirish uchun katta rag'batlantiruvchi fiskal paketlar zarur. Yashil o'sish barcha iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan faollashtirilishi uchun muntazam bo'lmagan yechimlarga va COVIDdan keyingi davrda yashil iqtisodiy o'sishni tiklash boshqa iqtisodiy tarmoqlar va resurslarni optimallashtirishga muhtoj.

Yashil moliyalashtirish bozorini rivojlantirish, ekoturizmning izchil harakat rejalari, ekoturizm sanoatida kichik va o‘rta korxonalarni (KO‘B) qo’llab-quvvatlash va mintaqaviy ekoturizm qiymat zanjirini yaratish asosiy amaliy siyosatdir.

Bizning fikrimizcha, barqaror turizm bir qator nazorat va tamoillarga muhtoj, ulardan eng muhimi yashil turizmni davlat tomonidan keng miqyosida qo‘llab-quvvatlash, talab etuvchilarda va taklif qiluvchilarda ekoturizm madaniyatini yaratish va milliy bog‘larni rivojlantirish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Adabiyotlar:

1.Xu L, Ao C, Liu B, Cai Z (2022) Ecotourism and sustainable development: a scientometric review of global research trends. Environ Dev Sustain. https://doi.org/10.1007/s10668-022-02190-0

2. Khanra S, Dhir A, Kaur P, Mantymaki M (2021) Bibliometric analysis and literature review of ecotourism: toward sustainable development. Tour Manage Perspect 37:100777. https://doi.org/10.1016/j.tmp.2020.100777

3. Jamoliddinovic, U. B. . (2022). Origins, Dynamics and Logics Bologna Process. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 5, 239–245. Retrieved from https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/254

4. Shasha Z, Geng Y, Sun H, Musakwa W, Sun L (2020) Past, current, and future perspectives on eco-tourism: a bibliometric review between 2001 and 2018. Environ Sci Pollut Res 27:23514–23528